

## SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “BULUT TO’SGAN OY” HIKOYASIDA AYOL TAQDIRINING BADIY IFODASI

**O’rolova Mohichehra**

Termiz davlat universiteti 3 - bosqich talabasi.

[mohichehraulova@gmail.com](mailto:mohichehraulova@gmail.com)

**Normat Yo’ldoshev**

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11530843>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada taniqli yozuvchi Shukur Xolmirzayevning hikoyachilikda tutgan o’rni haqida so’z yuritilib, uning boshqa ijodkorlarnikiga o’xshamas uslubi (ya’ni inson ruhiyatini ochib berish), “Bulut to’sgan oy” hikoyasidagi ayol obrazi misolida badiiy talqin etiladi.

**Kalit so’zlar:** Hikoya, hikoyanafislik, yozuvchi, uslub, tabiat detallari, inson ruhiyati, obraz, tog’liklar, mohiyat, hajm, ayol obrazi, ayol qismati talqini.

### THE ARTISTIC EXPRESSION OF A WOMAN'S FATE IN SHUKUR KHOLMIRZAYEV'S STORY "THE CLOUD BLOCKED MOON".

**Abstract.** This article talks about the role of the well-known writer Shukur Kholmirezayev in storytelling, his unique style (that is, revealing the human psyche), and the example of the female character in the story "Cloud Blocked Moon" are artistically interpreted.

**Key words:** Story, story elegance, writer, style, details of nature, human psyche, image, highlands, essence, volume, female image, interpretation of female destiny.

### ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОЙ СУДЬБЫ В ПОВЕСТИ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА «ГУЧА ЗАТМИЛА ЛУНУ».

**Аннотация.** В статье рассказывается о роли известного писателя Шукура Холмирзаева в повествовании, его уникальном стиле (то есть раскрывающем человеческую психику), художественно интерпретируется пример женского персонажа в рассказе «Луна, затененная тучами».

**Ключевые слова:** Повесть, повествовательная элегантность, писатель, стиль, детали природы, человеческая психика, образ, горная местность, суть, объем, женский образ, интерпретация женской судьбы.

---

Shukur Xolmirzayev o’zbek hikoyachiligini har tomonlama takomilga yetkazib, o’ziga xos hikoyanafislik maktabini yarata olgan ijodkordir. Bunday e’tiroflarning boisi, yozuvchi

hikoyalari ijod ahlining boshqa vakillaridan farq qilgan holda, o'zgacha uslub va ruhda yozilganligidir.

Tanqidchi Umarali Normatov "Ijod sehri" kitobida yozuvchi haqida: "Shukur talabalikdan boshlab to umrining ohirigacha Toshkentda yashasa-da, shu yerda uylanib, uy-joyli, bola-chaqali bo'lsa-da, o'zi tug'ilib o'sgan Surxon farzandiligicha qoldi. Fe'l-atvori, gap ohanglari surxoncha; tog'liklarga xos qaysar cho'rtkesar. Nihoyatda ko'p o'qigan, jahon adabiyoti bilan tanish chin zamonaviy ziyoli, boshidan shlyapasi tushmaydigan, kiyinishi, o'ta zamonaviy bo'lishiga qaramay "tog'lik fe'l-atvori" sira o'zgarmadi. Yashash tarzi ham o'sha-o'sha. Xatto Do'rmondagi bog' - hovlisini ham Boysun "junglisi"ning bir bo'lagiga aylantirdi."<sup>1</sup> - deya, uning xarakteristikasi yuzasidan o'rinli jumalarni keltirib o'tadi. Darhaqiqat, tanqidchi aytib o'tganidek, yozuvchi Surxon vohasining Boysun tog'larida tug'ilib o'sganligi tufayli, uning xarakterida ham tog' odamlariga xos dangallik, cho'rtkesarlik va rostgo'ylik xislatlari mujassam bo'lib, bu uning asarlariga ham singib ketgan.

Shukur Xolmirzayev asarlarida uslubga alohida e'tibor qaratar edi. U o'zi yaratgan asarlarni tanqid qilishga, uslubiga yangiliklarni olib kirishga, har bir asarini tanlab nashrdan chiqarishga, asarlarida insondan tortib, hatto, nuqta- vergulgacha alohida ahamiyat berishga harakat qilardi. Bunga adabiyotshunos Ibrohim G'afurovning yozuvchi uslubiga bildirgan quyidagi fikrlari orqali ham yana bir bor amin bo'lishimiz mumkin: "U shu paytgacha o'zbek adabiyotida qalam tebratib kelayotgan katta - kichik yozuvchilarning birontasiga o'xshamasdi.

Uning jumlasidan adabiyotda yangilik, yangi jumla qurilishi, yangi uslub boshlanayotganga o'xshardi, ajabki o'z ideallariga ham o'xshamasdi u."<sup>2</sup>

Nemis donishmandi Gyote aytganidek, har qanday sa'nat asarida, u hoh katta yo kichik bo'lsin, barcha voqelar mohiyatga borib taqaladi. Shu sababli, yozuvchilar yaratgan asarlar hajmiga emas, mohiyatiga qarab baholanadi. Shukur Xolmirzayevning hikoyalari ham hajmi qisqa bo'lsa-da, mohiyati salmoqliligi bilan ajralib turadi. Yozuvchi yaratgan hikoyalarida, tabiat detallari, inson ruhiyati va ularning o'zaro munosabatini ochib berishda, so'zlarni nihoyatda ziqnalik bilan terib chiqqanligi sababli, bu holat o'quvchini asar mohiyatini aqlan va ruhan topishga undaydi. Shuning uchun ham ko'pchilik adabiyotshunoslar Shukur Xolmirzayevni o'zbek hikoyachiligining bir "fenomen" hodisasi deb ta'kidlashadi.

Shukur Xolmirzayev uslubining o'ziga xos jihatlaridan biri, inson ruhiyatini mahorat bilan ochib berishi edi. Buning yorqin misoli sifatida, uning "Bulut to'sgan oy" hikoyasidagi ayol

<sup>1</sup> Umarali Normatov. "Ijod sehri".- T:"Sharq", 2007. 321-b.

<sup>2</sup> N.Erkayeva. "Shukur Xolmirzayev haqida".-T: "Ma'naviyat", 2001-y.

taqdirining badiiy ifodasini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchining ushbu hikoyasidagi ayol obrazi o'zbek adabiyoti uchun yangilik hisoblanadi. Hikoyada jismonan baquvvat, bir so'zli, oriyati uchun hech narsadan taptortmaydigan mard yigit Tavakkal, hamda, qanday odamligini hatto o'zi ham anglolmaydigan, badavlat erkaklar oldida g'ururi tog'lardanda baland, kibrli, or- nomusini yuksak darajaga qo'yuvchi, ammo, favqulodda tirikchilik uchun tanini sotib, fohishalik yo'liga kirishga majbur bo'lgan ayol, Gulsara obrazi gavdalanitirilgan. Asar voqealari, Quvvatjon ismli yozuvchining yomg'irdan qochib bir restoranga kirganida, ilgari tanish bo'lgan do'sti Tavakkal va uning yonida Gulsara ismli ayolni uchratib, o'zaro suhbat qurishlaridan boshlanadi.

Asarda Gulsara, Tavakkal bilan tanishishganiga bir kun bo'lganini, Tavakkal uning sumkasini olib qochayotgan bir nechta bezorilarning boplab adabini berganini gapirib beradi. Gulsara, Tavakkalni birinchi marotaba basavlat, mard, oriyatli boyvachcha misolida uchratib, unga nisbatan qalbida ozroq iliqlik sezsa, ammo, shu bilan bir qatorda uning ayollarga suyagi yo'qligidan, ularga past nazar bilan qarashidan nafratlanar edi. Tavakkal, Quvvatjonga o'sha kuni bo'lgan voqealarni aytib berar ekan, Gulsara uni "voy, men musulmonman, tegmayman sizga" deyishiga qaramasdan uyida tunashga qo'ymaganini, gastinsaga haydab yuborganini hayrat ko'zlari bilan so'zlab beradi. Gulsaradagi xuddi shu or- nomus, shu kungacha hayotida biron marotaba "yo'q" javobini olmagan erkakning g'ururini sindirib, uning ayollarga bo'lgan qarashlarini o'zgartirib yuboradi. Buni quyidagi jummalardan ham anglab olishimiz mumkin: "Aytmoqchi, men Gulsara uchun ichaman... Quvvat, siz ham xonim uchun iching. – Nihoyat iymanib jilmaydi. – Men "nomard" dedim bu kishini. Aslida, xursandman, xudo ursin-a... Zo'r ayol ekansiz. Chesni aytayapman." <sup>3</sup> Gulsara boy – badavlat xonodonda ovro'pacha uslubda yaxshi tarbiya topadi. Qo'shiq aytish va raqs tushishda ham qobilyatli bo'lsada, ammo otasining qistovi bilan orzularidan vos kechib, o'zidan yoshi ancha katta bo'lgan erkakka turmushga chiqishga majbur bo'ladi va erining bepushtligi sababli farzandli bo'lolmay ajrashib ketishadi.

Ayol hayoti davomida sitam chekib, arzigulik ro'shnolik ko'rmagan bo'lsa-da, Tavakkalga nomusini sotmaydi. Garchi ayol qalbida bu boyvachchaga nisbatan muhabbat bo'lsa-da, ammo, vaqtida o'zini tiyishni bila oladi va mana shu nomusi tufayli, Tavakkal ham uni yoqtirib qoladi.

Ammo buni anglab yetib, ayolni topib kelganida kech bo'lgan edi. Afsuski, Gulsara moddiy qiyinchiliklar tufayli fohishalik yo'lini tanlab ketadi. Tavakkal uning holatini bilib turib ham uni o'sha hayotdan olib chiqmoqchi, unga uylanmoqchi bo'ladi. Ammo o'zining gunohlarini

<sup>3</sup> Shukur Xolmirzayev. "Saylanma" 2- jildlik. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). 1996-y. 215-b.

anglagan, Tavakkal uchun o'zini noloyiq deb hisoblagan ayol uning taklifini qabul qilmaydi. Bu esa uning ruhiyatida o'zbeklik tuyg'usi qisman bo'lsa-da saqlanib qolganidan dalolat beradi.

Uning bu ayanchli qismatiga sabablardan biri, o'rischa tarbiya topib, o'zbekona ahloqiy talablarga yengilroq qaragani, to'kis yashashga o'rganib qolganligi bo'lsa, ikkinchisi, jamiyatdagi ma'lum bir davrda millat tarixining ijtimoiy sharoiti va yanglish ahloqiy tarbiyasidir (ya'ni rus istilosi davridan so'ng o'zbek ayollarining ko'pchiligi, kiyinish, din va madaniyatda o'zbeklarga xos bo'lmagan tarbiya topishadi). Ushbu hikoyasi orqali Shukur Xolmirzayev asli ko'ngli toza bo'lgan holda nopok turmush tarzini kechirishga majbur bo'lgan ayol qismatini ochib beradi. Shu o'rinda Gulsara taqdiridagi chizgilarning bunday ravishda tub burilish yasashi, o'quvchi ongida nega? nima uchun? degan savollarni keltirib chiqarishi tabiiy hol. Bunday paytda har bir kitobxon o'z qarashidan kelib chiqqan holda ayol taqdiriga munosabat bildiradi. Shu o'rinda adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldosh aytganidek: "O'quvchi ruhiyatini muvozanatdan chiqarish, uni badiiy tasvirga loqayd qolmaydigan holatga solish, har qanday adibning yutug'idir."<sup>4</sup> Darhaqiqat Shukur Xolmirzayev ushbu hikoyasida ayol taqdiri, ruhiy holatini shunday uslubda yoritib berganki, uni anglab yetish uchun alohida kuch talab etiladi.

Xulosa o'rnida aytib o'tishimiz mumkinki, Shukur Xolmirzayevning ayrim hikoyalari hajman talabga javob bermasa-da, mazmunan qissa va romanga tengdir. Yozuvchi haqiqatda hikoyachilikda bir "fenomen" hisoblanadi. Buning yorqin misoli sifatida "Bulut to'sgan oy" hikoyasidagi ayol qismatini ko'rib o'tdik. Shukur Xolmirzayev obraz qo'llash va uning ruhiyatini yoritib berishda, uslubdan ustamonlik bilan foydalana oladigan yozuvchidir.

## REFERENCES

1. Umarali Normatov. "Ijod sehri".- T: "Sharq", 2007-y. 321-b.
2. N.Erkayeva. "Shukur Xolmirzayev haqida".-T: "Ma'naviyat", 2001-y.
3. Shukur Xolmirzayev. "Saylanma" 2- jildlik. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). 1996-y. 215-b.
4. Qozoqboy Yo'ldosh. "Yoniq so'z". T : "Yangi asr avlodi", 2006-y. 354-b.
5. <https://uz.wikipedia>.

<sup>4</sup> Qozoqboy Yo'ldosh. "Yoniq so'z". T : "Yangi asr avlodi", 2006-y. 354-b.